



INKLYUZIV TA'LIM ASOSIDA BOLALAR RIVOJLANISHINI OPTIMALLASHTIRISH TAMOYILLARI

Askarova Zuxra Shavkat qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ijtimoiy, psixologik va kognitiv rivojlanish jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning shakllanishi, integratsiya va inklyuziya tushunchalarining farqlari, bolalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi metodologik tamoyillar mazmunan ochib beriladi. Individual yondashuv, universal dizayn (UDL) va hamkorlikka asoslangan o'qitish tamoyillarining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida tutgan o'rni yoritiladi. Maqolada inklyuziv muhitning bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va kognitiv faolligini shakllantirishdagi ahamiyati asoslanadi hamda amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolar tahlil qilinib, takomillashtirish yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim va tamoyillar, universal dizayn, UDL, integratsiya, inklyuziya, ijtimoiy moslashuv, psixologik rivojlanish, kognitiv faollik, bolalar rivojlanishi, pedagogik yondashuvlar

Jamiyatimizda imkoniyati cheklangan bolalar (alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) va sog'lom bolalar birgalikda ta'lim olishi uchun muhit yaratishda maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim bolalarning ijtimoiy, psixologik va kognitiv jihatdan barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmon bilan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"²³ tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berish va ta'lim muassasalarining infratuzilmasini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaror bilan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari"²⁴ to'g'risidagi qaror 2020–2025 yillar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha yo'l xaritasini belgilaydi hamda maqsadli ko'rsatkichlar va ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi.

O'zbekiston kontekstida inklyuziv ta'limning joriy etilishi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ijtimoiy-psixologik va kognitiv rivojlanishni tahlil qilish uchun kuchli poydevor yaratadi.

Ushbu maqolada biz maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning ijtimoiy-psixologik va kognitiv rivojlanish aspektlarini ko'rib chiqamiz. Maqsad inklyuziv muhitda bolalarning

²³ O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-5712-son Farmon, 2019-yil 29-aprel. – Toshkent, 2019.


²⁴ Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-4860-son Qaror, 2020-yil 13-oktabr. – Toshkent, 2020.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

rivojlanishini chuqur tahlil qilish, mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini taklif etishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi dastlab 1970-80-yillarda G'arbiy mamlakatlarda pedagogika va maxsus pedagogika doirasida paydo bo'ldi. U avval "integratsiya" kontseptsiyasi bilan bog'langan edi. Farq shundaki: integratsiya bolalarni alohida guruhdan umumiy guruhga kiritishni anglatgan bo'lsa, inklyuziya bu ta'lim jarayonini barcha bolalar uchun moslash va ularni bir xil imkoniyatlar bilan o'qitishni ta'minlashga qaratilgan konsepsiyadir. Quyidagi tamoyillar asosida maktabgacha ta'lim tizimini inklyuziv ta'lim asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir (1-rasm):



1-rasm: Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning metodologik tamoyillari

Individual yondashuv tamoyili: inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biridir va u har bir bolaning rivojlanish darajasi, o'quv uslubi, psixofiziologik xususiyatlari va ijtimoiy-emotsional ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Bu tamoyil Lev Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayangan holda, bola uchun eng samarali o'qitish muhitini yaratishni talab qiladi. O'quvchilarning individual farqlarini (kognitiv, emotsional, nutqiy, motorik, sensor, ijtimoiy) aniqlash va tahlil qilishda; moslashtirilgan o'quv topshiriqlari, o'quv sur'ati va baholash usullarini ishlab chiqishda; har bir o'quvchi uchun shaxsiy rivojlanish dasturi (IRD) tuzishda o'quvchilar o'z imkoniyati darajasida muvaffaqiyatga erishadi, o'qish jarayonidan chetda qolib ketish xavfi kamayadi.²⁵

Universal dizayn tamoyili: ta'lim jarayonini UDL – Universal Design for Learning barcha bolalar uchun o'quv jarayonini moslashtirish bo'lib, har qanday o'quvchi uchun qulay, moslashuvchan va kirish mumkin bo'lgan holga keltirishni nazarda tutadi. UDL konsepsiyasi Xalqaro CAST (Center for Applied Special Technology) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv materiallari va metodlarini turli ehtiyojlarga ega bolalar uchun moslashtirishga qaratilgan bo'lib, 3 ta asosiy omilga tayanadi:

1. Ko'p kanalli taqdimot – ma'lumotni vizual, eshitish, kinestetik, grafik va boshqa shakllarda yetkazish.

²⁵ <https://www.marxists.org/russkij/vygotsky/1934/thinking-speech.pdf>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

2. Ko'p uslubda ifoda etish – o'quvchiga bilimini yozma, og'zaki, amaliy harakat yoki texnologiya yordamida namoyish etish imkoniyatini beradi.

3. Rag'batlantirish va motivatsiya – o'quvchilarning qiziqish va motivini oshiruvchi faol o'quv dasturlarini qo'llashni tavsiya etadi.

Hamkorlik tamoyili: inklyuziv ta'limda turli mutaxassislar (defektolog, logoped, psixolog, tutor, shifokor) va ota-onalar o'rtasidagi tizimli aloqaning muhimligini ta'kidlaydi. Yagona maqsad bolaning rivojlanishi va ta'limdagi muvaffaqiyatini maksimal darajada qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu tamoyil G'arb olimi Bronfenbrennerning "Ekologik tizimlar nazariyasi" da: "Bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhiting barcha darajalaridagi hamkorlikka bog'liq" – deya ta'kidlaydi.

Inklyuziv ta'limda hamkorlik tamoyili asosida ta'lim olib borilsa, interprofessional yondashuv, ya'ni mutaxassislar birgalikda reja tuzib, umumiy strategiya asosida ishlaydi. Bunda ota-onalarning ishtiroki ham bolada o'qishga nisbatan barqaror motivatsiyani oshirishi ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Koordinatsiyalangan hamkorlik orqali bola uchun eng qulay ta'lim muhiti yaratiladi, muammolar erta aniqlanadi va yechimlar samarali bo'ladi.

D.S. Kaxarovaning ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim jarayonida eng muhim omil bu o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini chuqur diagnostika qilish va ularga moslashtirilgan pedagogik sharoitlarni yaratishdir. Muallifning fikricha, o'qituvchining psixologik kompetentligini oshirish, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi ijobiy psixologik muhit yaratish inklyuziv ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, dissertatsiyada inklyuziv o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, yoshga doir psixologik jarayonlarni hisobga olish, hamkorlikka asoslangan o'qitish texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.²⁶

Volchenkoning ilmiy izlanishlarida ta'kidlanishicha, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning oliy ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi uch asosiy omilga tayanadi: psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasasi infratuzilmasining mosligi va ijtimoiy-interaktiv munosabatlarning rivojlanganligi. Muallifning fikricha, inklyuziv ta'lim makonida shaxsning o'zini xavfsiz, qabul qilingan va qadrlangan deb his qilishi moslashuv jarayonining eng muhim tarkibiy qismidir.

Shuningdek, tadqiqotda adaptatsiya jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning hamkorligi zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.²⁷

Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish bolalarning ijtimoiy, psixologik va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv muhit sharoitida ta'lim olgan bolalarda kognitiv faoliyatning faollashuvi, emotsional barqarorlikning ortishi va ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishi kuzatiladi.

²⁶ Kaxarova, D. S. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro davlat universiteti, 2019. – 82-b.

²⁷ Волченко, Ю. И. Социальная адаптация студентов с ограниченными физическими возможностями в условиях инклюзивного образовательного пространства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – 2016. – 22 с.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Shu bilan birga, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, moslashtirilgan o'quv materiallarining mavjudligi va ota-ona hamkorligining samaradorligi inklyuziv ta'limning sifatini belgilovchi muhim omillardandir.

Umuman olganda, maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha inklyuziv yondashuvni rivojlantirish ta'lim jarayonining insonparvarlik mazmunini chuqurlashtiradi, barcha bolalarning teng huquqli rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi hamda ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorgarligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-5712-son Farmon, 2019-yil 29-aprel. – Toshkent, 2019.

2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-4860-son Qaror, 2020-yil 13-oktabr. – Toshkent, 2020.

3. <https://www.marxists.org/russkij/vygotsky/1934/thinking-speech.pdf>

4. Kaxarova, D. S. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro davlat universiteti, 2019. – 82-b.

5. Волченко, Ю. И. Социальная адаптация студентов с ограниченными физическими возможностями в условиях инклюзивного образовательного пространства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – 2016. – 22 с.